

Feld'egerlik xizmati ko'rsatishga

SHARTNOMA No 17

Urganch shahri

2022 y. « 31 » yanvar

O'zR AT va KRV Davlat feld'egerlik xizmati to'g'risidagi Nizom asosida ish ko'ruvchi, keyingi o'rinlarda «Bajaruvchi» deb ataladigan O'zR AT va KRV Davlat feld'egerlik xizmati Urganch shahar bo'linmasi boshlig'i N.M.Usmanov nomidan bir tomondan va keyingi o'rinlarda «Buyurtmachi» deb ataladigan IJKKD Norazm viloyat boshqarmasi rahbari G.P. Sultanov ikkinchi tomondan ushbu shartnomani quyidagilar to'g'risida tuzdilar:

1. Shartnoma mavzusi

1.1.«Buyurtmachi»ning jo'natmalarini O'zbekiston Respublikasi viloyat markazlarigacha va Toshkent shahri bo'yicha qabul qilish va yetkazib berish hamda «Bajaruvchi»ning tasdiqlangan jadvali bo'yicha Moskva shahri (Rossiya) orqali MDH mamlakatlari viloyat markazlarigacha yetkazib berilishini ta'minlash shartnoma mavzusi hisoblanadi.

1.2.«Buyurtmachi»ning jo'natmalari dam olish va bayram kunlaridan tashqari har kuni soat 8—00 dan 17—00 gacha «Buyurtmachi» yoki «Bajaruvchi»ning binosida qabul qilinadi.

1.3.«Buyurtmachi»ning binosida jo'natmalar qabul qilinganligi uchun, avtotransport berilganligi uchun to'lov, shuningdek har bir jo'natmadan qo'shimcha yig'im undiriladi. Ko'rsatilgan qo'shimcha xizmatlar uchun hisob — kitob amaldagi tarifga muvofiq bajariladi.

2. Yetkazib berish shartlari

2.1.«Bajaruvchi» O'zbekiston Respublikasining viloyat markazlarigacha jo'natmalarni «Buyurtmachi» tomonidan ko'rsatilgan manzil bo'yicha yetkazib beradi. Agar jo'natmalarni oluvchi viloyat markazidan tashqarida joylashgan bo'lsa, jo'natmalar maxsus aloqa tarmog'i orqali topshiriladi.

2.2. Jo'natmalarni yetkazib berish «Bajaruvchi»ning avtotransporti orqali (istisno hollarda «Buyurtmachi»ning avtotransporti orqali), jo'natmalarni oluvchi joylashgan manziliga qarab havo yo'llari orqali amalga oshiriladi.

2.3.Zarurat bo'lganda «Buyurtmachi» «Bajaruvchi» bilan kelishuv bo'yicha jo'natmalarni yo'nalish doirasidan tashqari —feld'egerlar bilan (narochno) yuborishi mumkin. Bunda «Buyurtmachi» amaldagi xarajatlarni tarifga muvofiq to'laydi.

2.4.«Buyurtmachi»ning jo'natmalari bo'lmaganda yoki jo'natmalar tayinlangan muddatda jo'natishga tayyor bo'lmaganda, feld'egerning nazorat varag'iga «jo'natmalar yo'q» degan belgi qo'yiladi va «Buyurtmachi»ning imzosi va muhri bilan tasdiqlanadi. Ushbu holatda amaldagi tarifga binoan transport xarajatlari uchun xaq to'lanadi.

2.5.«Bajaruvchi» jismoniy shaxslarga yo'naltirilgan jo'natmalarni qabul qilmaydi.

3. Shartnoma summasi va uni to'lash tartibi

3.1. Shartnoma umumiy summasi 640000 (olti yuz qirral ming) so'mni tashkil etadi.

3.2. Ko'rsatilgan xizmatlar uchun haq amaldagi tarif asosida oldindan umumiy summaning 30 foizi miqdorida, qolgan 70 foizi yil davomida to'lanadi.

4. «Bajaruvchi»ning xuquq va majburiyatlari

4.1. «Bajaruvchi» jo'natmalarni qabul qilib olingan paytdan ular oluvchiga topshirilgan paytgacha jo'natmalarning saqlanishini ta'minlash yuzasidan barcha zarur choralarni ko'rish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

4.2. «Bajaruvchi» jo'natmalarni O'zbekiston Respublikasi viloyat markazlarigacha 48 soat mobaynida yetkazib berish majburiyatini o'z zimmasiga oladi, dam olish va bayram kunlari bundan mustasno.

5. «Buyurtmachi»ning huquq va majburiyatlari

5.1. «Buyurtmachi» «Bajaruvchi» orqali yuboriladigan maxfiy jo'natmalarni O'zbekiston Respublikasining maxfiy ish yuritish talablariga muvofiq rasmiylashtirishga majburdir.

5.2. «Buyurtmachi» maxfiy bo'lmagan paketdagi jo'natmalarni xalqaro pochta standartlariga muvofiq rasmiylashtirishi shart (konvertning chap yuqori burchagida: jo'natuvchining nomi, uning manzili, shahar, respublika; konvertning o'ng quyi qismida: oluvchining nomi, uning manzili, shahar, viloyat, davlat) manzil ko'rsatkichidan oldin «Qayerdan» va «Qayerga» («Kimga») so'zlarini yozishi kerak.

5.3. «Buyurtmachi» manzilga oid ma'lumotlarni va paketlardagi boshqa yozuvlarni yozuv mashinkasida bosmaxona usulida, siyox yoki sharikli ruchka bilan aniq va tushunarli qilib yozishi shart. Oluvchining manzili qisqartirilmasdan yozilishi zarur.

5.4. Paketning orqa tomoniga «Buyurtmachi» konvert yelimplangan chiziq bo'yicha barcha qopqoqlarda o'zining mastika muhri ottiskini qo'yishi shart.

5.5. Yuridik manzillar, bank rekvizitlari, telefon raqamlari o'zgargan taqdirda tomonlar bir-birini yozma ravishda xabardor qilish majburiyatini o'z zimmalariga oladilar.

5.6. Agar jo'natmalar «Buyurtmachi»ning binosida qabul qilinsa, «Buyurtmachi» «Bajaruvchi»ga jo'natmalarni qabul qilish uchun alohida jo'natmalar bilan ishlashga moslashtirilgan xona bilan ta'minlashi zarur.

5.7. «Buyurtmachi» «Bajaruvchi» orqali yuboriladigan jo'natmalarning og'irligini o'zi tortib ko'rish va reestrlarda shaxsan qayd etish huquqiga egadir.

5.8. «Buyurtmachi» «Bajaruvchi» tomonidan jo'natmalar topshirilganligi to'g'risida ma'lumotnoma so'rash huquqiga egadir, bunday holatda belgilangan tarif asosida qo'shimcha haq undiriladi.

6. Tomonlarning javobgarligi

6.1. Yuborilayotgan jo'natmalarga «Bajaruvchi»ning aybi bilan zarar yetkazilgan taqdirda «Bajaruvchi» Qonun xujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

6.2.«Bajaruvchi» tomonidan ko'rsatilgan xizmatlarga haq to'lanmaganligi uchun «Buyurtmachi» «Bajaruvchi»ga o'zi to'lashdan bosh tortgan summaning 15 foizi miqdorida jarima to'laydi.

6.3.Xizmatlarga o'z vaqtida haq to'lamaganligi uchun «Buyurtmachi» «Bajaruvchi»ga kechiktirilgan xar bir kun uchun muddati o'tkazib yuborilgan to'lovning 0,4 foizi miqdorida, biroq muddati o'tkazib yuborilgan to'lovning 50 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorda penya to'laydi.

7. Ta'qiqlar

7.1. Quyidagilar ta'qiqlanadi:

Mazkur shartnomaning 5.1, 5.2, 5.3, 5.4 – bandlarida ko'rsatilgan talablar buzilgan holda rasmiylashtirilgan jo'natmalarni jo'natish.

«Bajaruvchi» orqali kontrabanda, radioaktiv, zaxarlovchi, portlash xavfi bo'lgan, tez alanganadigan va O'zbekiston Respublikasi Qonunchiligida ta'qiqlangan boshqa moddalar va buyumlarni jo'natish.

8. Fors – major

«Bajaruvchi» fors – major holatlarda jo'natmalar yo'qolganligi, o'g'irlanganligi yoki shikastlanganligi uchun javob bermaydi, aynan:

8.1.Suv toshqini, yong'in, zilzila bo'lganda va boshqa tabiiy ofatlarda;

8.2.«Bajaruvchi»ning xodimi halok bo'lganda yoki favqulodda vaziyatlarda;

8.3.Mazkur shartnomaning 7 – bo'limida ko'rsatilgan moddalar va buyumlar «Bajaruvchi» orqali jo'natilganda yoki kontrabanda va ta'qiqlangan tijorat jo'natmalari vakolatli organlar tomonidan xibsga olinganda yoki musodara qilinganda;

8.4.Noqulay meteorologiya sharoitlarida va xavo kemasining texnik nosozligida.

8.5.Fors – major holatlarda «Bajaruvchi» «Buyurtmachi»ni xabardor qiladi.

9. Nizolarni hal etish

9.1.Mazkur shartnoma bajarilishi bilan bog'liq barcha nizolar mumkin qadar tomonlarning muzokaralar olib borishi yo'li bilan hal etilishi kerak.

9.2. Tomonlar kelishuvga erishmagan taqdirda nizolarni hal etish O'zbekiston Respublikasining amaldagi Qonunchiligiga muvofiq sud tartibida amalga oshiriladi.

10. Shartnomaning amal qilish muddati

10.1. Mazkur shartnoma tomonlar uni imzolagan paytdan boshlab kuchga kiradi va 2022 yil « 31 » dekabr gacha amal qiladi.

10.2. Mazkur shartnomaga kiritilgan har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar, agar ular yozma shaklda rasmiylashtirilgan va tomonlarning har biri tomonidan imzolangan bo'lsa, bajarilishi majburiy hisoblanadi.

10.3. Mazkur Shartnoma ikki nusxada tuzildi, ularning har ikkalasi bir xil yuridik kuchga ega.

Tomonlarning yuridik manzillari, bank rekvizitlari va telefon raqamlari

«BAJARUVCHI»

Davlat feld'egerlik xizmati
Urganch shahar bo'linmasi
Urganch sh. Y. Bobojonov ko'cha,
14 uy
Tel.faks: 223-02-86, 223-02-84
H.r.20203000600516051001
Aloqa bank Toshkent sh. MFO 00401
STIR: 200409741, OKONX 52200

«BUYURTMACHI»

O'ZB. RESP. BOSH PROKURATURASI H.I.J.Q.K. DEPARTAMENTNING XORAZM VILOYATI BOSHQARMASI URGANCH SHAHAR "P. MAHMUD" KO'CHASI 21-UY TEL/FAKS: 0362-228-50-09; 0362-228-50-20	
STIR: 203272794	
SH/X/R: 200002860331017038400010001	
MOLIYA VAZIRLIGI G'AZNACHILIGI X/R: 23402000300100001010 STIR: 201122919 MFO: 00014 MARKAZIY BANK TOSHKENT SHAHAR BOSH BOSHQARMASI XKKM BOSHLIQ: <i>[Signature]</i> G.P. Sultonov	



Boshliq *[Signature]* N.M. Usmanov

2022 yil *[Signature]* » *[Signature]*

